



*Abdurashid Tursunov,
ToshDO'TAU tadqiqotchisi
a.b.tursunov@mail.ru
telefon: +99891-511-77-55*

MASHRABSHUNOSLIKKA OID AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotshunosligida Mashrab ijodi yuzasidan qilingan tadqiqotlar va bu sohada amalga osirilishi lozim bo'lgan ishlar xususida so'z boradi. Shuningdek, uning ijodidagi tasavvufiy ma'no qirralarini talqin etish masalalariga e'tibor qaratilishi yuzasidan fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Mashrab ijodi, istiqlol imkoniyati, mashrabshunoslik taraqqiyoti, diniy-tasavvufiy talqin. O'zbek adabiyotshunosligida Mashrab ijodiyotining o'rganilishi borasida ko'pchilik ilm ahllariga ko'ra ham bir navi "titib tashlangan" deya qaralsa-da, aslida mazkur ijod namunalarining turli qirralari: matniy tadqiqi borasida, ulardagi tasavvify ma'no va mazmunlarning ochiqlanishi, ularga yetarlicha urg'u berib yoritilishi to'g'risida ham, ijodkorning ma'naviy va lafziy san'atlarni qo'llashdagi mahorati masalalari bo'yicha ham, va hokazo, yetarlicha tadqiqot obyekti o'laroq nazardan chetda qolayotgan jihatlar juda bisyor ekanligini alohida ta'kidlash mumkin.

Darhaqiqat, yetuk olimlarimizning shoir ijodini o'rganish, har tomonlama tadqiq qilish borasida ko'plab tan olingen, e'tiborga molik, hatto xalqaro darajada e'tirof etilgan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilganki, ularning izlanishlarining davomchisi sifatida biron-bir natija ko'rsatish, hatto ularga tegishli shoir ijodiga taalluqli mazkur masalalarga oid ishlarning o'zini tizimli ravishda to'liq o'qib-o'rganib, kerakli xulosalarga ega bo'lish ham bir qadar mushkul vazifa hisoblanib, buning uchun izlanuvchidan katta bilim va malaka talab etiladi. Modomiki, shunday bo'lar ekan, bu jabhalarda ma'lum muvaffaqiyatga erishish, ilmiy yangilik o'laroq tadqiqot ishini yuzaga chiqarish va uning samarasining vujudga kelishi uchun chuqur bilim va tajriba, shuningdek, asoslangan, tizimli ravishdagi ilmiy-amaliy izlanishlarning natijalari va ularning mutaxassislar tomonidan umume'tirof etilgan bo'lishi jiddiy zarurat hisoblanadi. Aniqki, biz o'rganayotgan va ilmiy-tadqiqot olib bormoqchi bo'lgan yo'nalishda ham birmuncha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilgan. Lekin bugungi kunda bu kabi ishlar o'z davomchilarini kutib turgani ham bor gap. Aynan mustaqilligimiz sharofati bilan Mashrab kabi yuksak she'riyat vakillari ijodini o'rganish o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi desak, bu gap hech ham mubolag'a bo'lmaydi. Vatanimiz va millatimiz taraqqiyoti ham aslida ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosga qanchalik ahamiyat qaratishimiz bilan chambarchas bog'liq jarayon hisoblanadi va shu asosga muvofiq amalga oshadi. Sobiq sho'ro davrida amalga oshirilgan ko'plab tadqiqotlarda mumtoz adabiyotimiz vakillarining ijodini o'rganishda aynan sho'ro mafkurasiga asoslanib ish ko'rish, baholash va xulosalash deyarli barcha ilmiy izlanishlar, tahlillarning ham asosini tashkil etadi. O'sha davrdagi qat'iy talabga ko'ra, tuzum va mafkura chig'irig'idan o'tmaydigan ilmiy ishlarning yuzaga chiqishiga ham, amalga oshirilishiga ham yo'l qo'yilmaganligi bugungi kunda barchaga ma'lum haqiqatdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishib, sobiq sho'ro davridan qolib kelayotgan sun'iy to'siqlar yo'qotilib, qulay vaziyat va shart-sharoitlar vujudga kelgach, akademik A.Rustamov, prof. N.Komilov, prof. I.Haqqulov, akademik Sh.Sirojiddinov va ularga ergashgan bir qator adabiyotshunos olimlarimiz katta jonbozliklar ko'rsatdilar, ya'ni yuzaga kelgan asosan ma'naviy bo'lgan bo'shliqni to'ldirish uchun xolisona yondashib, ko'plab ulug'larimizning suv va havo kabi zarur bo'lgan asarlarlarni tarjima, tabdil va tahlil qilish barobarida xalqimiz uchun munosib tuhfa tayyorlab, omma e'tiboriga havola etdilar. Shu bilan bir qatorda, ko'plab e'tiborga molik ilmiy-tadqiqot ishlarini tayyorlab nashr ettirib, xalqimiz ma'naviyatining boyishiga, yuksalishiga baholi qudrat o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar.

Dunyo adabiyotshunosligida Mashrabning hayoti va ijodi, shaxsiyati, unga mansub asarlarning o'rganilishi: tahlil va tadqiqi, to'liq bekam-u ko'st tabdili borasida o'z tadqiqi kutib turgan ishlar talaygina ekanligi mashrabshunos olimlarimiz tomonidan e'tirof etilgan haqiqatdir. Shoir asarlaridagi



tasavvufiy ma’no va mazmunning yuzaga kelish yo‘llari, tarixiy ildizlari, hosil qiluvchi va hosila ma’no referentlari o‘xshashligiga asoslanuvchi metafora hodisasi kabi badiiy bir qancha badiiy san’at unsurlari ilmiy tadqiqotlarda tahlil etilgan bo‘lsa ham, baribir, bu boradagi izlanishlar ijodkor mansub bo‘lgan boshqa tasavvuf adabiyoti namoyandalariga oid tasnifotlar kabi o‘rganilishi to‘xtamaydigan jarayon hisoblanadi. Hanuzgacha oxiriga yetmagan “Ikki Mashrab” konsepsiysi ham bunga yaqqol dalil o‘laroq omma e’tiboridan chetda qolayotgani yo‘q. Bu va bu kabi o‘rganilishi zarur bo‘lgan, o‘zining aniq yechimini kutib yotgan e’tirof etilgan muammolar yanada keng ko‘lamli, chuqur ilmiy izlanishlarni, yetarlicha dalillarni talab etidi.

Olimlar tomonidan ham, xalqaro miqyosda ham e’tiborga molik ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lishidan qat’i nazar, bugungi kunlarimizgacha ham mashrabshunoslik fan darajasiga chiqa olmadi. Shuningdek, shoir ijodining o‘rganilishi borasida mакtab ta’limi doirasida va oliv ta’lim protsessida ham (ayniqsa, eski darsliklarda) sezilarli kamchiliklarga yo‘l qo‘yildi. Hozirda bir qadar muvaffaqiyatlarga erishilgan bo‘lsa-da, baribir, bu xususda olimlarimiz oldida ko‘ndalang turgan vazifa va muammolar mavjud. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar nashr etilgan ko‘plab ilmiy adabiyotlarda Mashrabga asosan diniy-mistik shoir sifatida qaralib, shunga muvofiq tarzda tadqiq etilib, talqin qilishda ham shu asosga ko‘ra yondashishga majbur bo‘lingan. She’rlarining faqatgina zohiriy ma’nolarigagina e’tibor qaratilib, shunga muvofiq tahlil etilgan. Natijada majburiy ravishda mohiyatga diqqat qaratilmagan, ulardagi asosiy jihat, ya’ni tasavvufiy ma’no-mazmun mutlaqo chetda qolib ketavergan.

Albatta, tasavvuf she’riyatida ramz va timsollar muhim o‘rin tutgani uchun ham ularning dunyoviy mazmunga ega ijod namunalari bilan umumiy va mushtarak jihatlari mavjud. Ilohiy ishq tarannumi bayonida majoziy ishq izhoriga taalluqli bo‘lgan obrazlar, ishoralar ko‘rinishlari ham shoirlar ijodida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Bunda ularni berilgan nozik ishoralar, istioralar orqali anglay bilish muhim o‘rin tutadi.

Yuqorda ta’kidlaganganidek, ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa ham, darhaqiqat, bugungi kunda Mashrab kabi tasavvuf adabiyoti namoyandalari ijodiga yangicha (aslida jida eskicha ham) yondashib, ulardagi tasavvufga, Qur’on-u hadis talqiniga aloqador jihatlarini yoritish dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi. Zero, ulug‘larimiz ijodida tasavvufga aloqador ma’nolar shu qadar ko‘p va nihoyatda rang-baranglik kasb etganki, ularni dabdurustdan anglab yetib bo‘lmaydi. Chunki shoirlar ijodida “erishilgan ma’nolarning yuksakligi” asosiylik kasb etganki, ularni to‘la anglab yetish uchun shoir erishgan ma’naviy kamolot darajasiga yuksalmoq talab etiladi. Qolaversa, tasavvuf adabiyoti islom olamida o‘zining muayyan tarixiy ildizlariga ega, asrlar bo‘yi shakllanib, sayqallanib kelgan islom falsafasiga ham bir qadar taalluqli hisoblanadigan yetuk bir ta’limot mahsuli sifatida maydonga chiqdi. Shunga ko‘ra, mazkur adabiyot vakillari qoldirgan, yetuk ma’naviy merosimiz hisoblanadigan kitoblarimizga murojaat qilish komillik yo‘lidagi adashish, to‘siq (mashaqqat, sinov)larga duch kelinganda insonga yo‘lchi yulduz, dastgir o‘laroq ulkan foyda beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Кенжабек, Мирзо. Ошиқ Машраб ва тасаввуф олами. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 148 б.
2. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Моворуннахр; Ўзбекистон НМИУ, 2009. – 448 б
3. Машраб, Бобораҳим. Мехрибоним қайдасан. – Тошкент: F.Гулом, 1990. – 416 б.
4. Рушдий, Мухаммад Сиддик. Авлиёлар сultonи. – Тошкент: Камалак, 1996. – 148 б.
5. Турсунов, Абдурашид. Машраб ижодининг ўрганилишига бир назар // EVRASIAN JOIRNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE, 1(2). – P. 87–89
6. Raimova S. Traditions and contemporary Uzbek poetry. International bulletin of applied science and technology http s : // doi.org/10.5281/ zenodo 7935465. Germany, 2023 vol 3, issue 5, May, 484-487.